



**MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING PUBLITSISTIK MAQOLALARI**  
**TAHLILI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12546741>

**Xamidov Mirolimbek**

*FarDU, katta o'qituvchi (PHD)*

**Odiljonova Robiyaxon**

*FarDU, 3-kurs talabasi*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik maqolalari badiiy tahlilga tortilgan hamda maqolalarda keltirilgan ijtimoiy muammolarga yechimlar berilgan. Bundan tashqari, Mahmudxo'ja Behbudiyning qanchalik ma'rifatparvar, jonkuyar jamoat arbobi ekanligi va so'z qo'llashdagi badiiy mahorati ochib berilgan.

**Kalit so'zlar**

Mahmudxo'ja Behbudiy, ma'rifatparvar, publisist, kemiruvchi illatlar, til o'rganish, umuminsoniy tuyg'ular, Vatan ravnaqi

**ANNOTATION**

In this article, journalistic articles of Mahmudhoja Behbudi are subjected to artistic analysis and solutions to social problems presented in the articles are given.

In addition, Mahmudhoja Behbudi's enlightened, passionate public figure and artistic skills in using words are revealed.

**Key words**

Mahmudhoja Behbudi, enlightener, publicist, rodent vices, language learning, universal feelings, development of the Motherland.

Mahmudxo'ja Behbudiy - buyuk ma'rifatparvar, yozuvchi, publisist, dramaturg va jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri. Ko'plab gazeta, jurnallardagi maqolalari bilan taraqqiyat parvar kishilar va ayniqsa, yoshlarning diqqat-e'tiborini qozongan. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistik merosini birinchilardan bo'lib o'rgangan olim professor Begali Qosimovdir. Olimning "Izlay-izlay topganim" "Milliy uyg'onish: ma'rifat, jasorat, fidoyilik" kabi monografiyalarida, uning rahbarligida yozilgan oliy o'quv yurtlari uchun "Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti" darsligida jadid publitsistikasi, jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik maqolalarida



kotarilgan muammolar keng va atroflicha oorganilgan<sup>5</sup>. Umuman olganda mutaffakirning maqolalarida kotarilgan muammolar aynan osha davr uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham oziga xos ahamiyat kasb etib kelmoqda. Behbudiyning publisistikasidan orin olgan bir qancha maqolalari aynan umuminsoniy tuygular hamda millat, milliylik kabi masalalariga aloqadordir. Masalan, uning Bizni kemirguvchi illatlar, Ikki emas, tort til kerak, Amolimiz yoinki murodimiz, Ehtiyoji millat deb nomlangan maqolalarida aynan bir davr emas, balki davomli muammolar haqida yozilgan. Uning Bizni kemirguvchi illatlar deb nomlangan maqolasini hozirgi kunga talqin qiladigan bolsak, unda asosan hasham dor toy va aza haqida gap ketadi. Haqiqatdan ham hozirgi kunda toylar juda ham kop hasham dorlik asosida bolyapti, bu ortiqcha sarf-xarajatlar va isrofgarchiliklarga sabab bolmoqda. Hozirgi kunda boshqalardan kora yaxshiroq qilaman yoki ulardan nima kamim bor deb ozlariga aytيلاتغان xitoblari tufayli kop insonlar ortiqcha xarajatlarga duch kelishyapti, yoinki necha yillab ter tokib toplagan pullarini orzu-xavaslari uchun bir kunga sarflashmoqda. Aynan Behbudiyl bu maqolasini Bizni kemirguvchi illatlar deb nomlagani ham bejizga emas. Haqiqatda oylab korilsa, xuddi shu illatlarga ortiqcha e'tibor berib, orzu-xavas ortidan chopib hech vaqosiz qolish, yoki birov qilganidan yaxshiroq qilish maqsadida bor budini osha bir kuni uchun sarflash, qoshtirnoq ichida bizni kemirguvchi illatlar sanaladi. Behbudiyning bu nomni tanlashidan ham aynan uning mahorati benihoya yuksak ekanligini korishimiz mumkin. Ya'ni shu illatlarga haddan ortiq berilish insonlarni tubanlashtiradi hamda millatni asta-sekin yemirilishiga olib keladi. Shu sababli ham bir kunlik toy-tomosha boladimi, yoki boshqa birorta hasham dor qilingan bayrammi, hammasi ixcham tarzda otkazilishi kerak. Aynan maqolada kozlangan maqsad ham aynan shudir. Behbudiyl oz davrida yozib qoldirgan maqolasi hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri sifatida korishimiz mumkin. Korib turganimizdek, xuddi shu maqola hozirgi kun bilan hamnafas tarzda yozilgan va hozirgacha yechimi topilmagan muammolarni qamrab olgan hamdir.

Behbudiyning "Ikki emas, tort til lozim maqolasida ham ahamiyatga molik bolgan orinlar haqida toxtalib otmoqchimiz. Bu maqolaning goyasi ham aynan hozirgi davrga xos va mosdir. Ya'ni bu maqolada kozlangan asosiy maqsad bu til organish masalasidir. Hozirgi kunda ham yoshlarni til organishi va zamonaviy kasblarni egallashi borasida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Til organish insonlarni zamon bilan birga rivojlanishi yoki chet davlatlariga chiqib, u yerda malakasini oshirishi va o'z yurtiga qaytib, chet elda o'rgangan

<sup>5</sup> Mahmudxo'ja Behbudiyl publisistikasida Millat va milliyat masalalarining yoritilishi. Bitiruv malakaviy ishi.



narsalarini o‘z yurtida tadbiq etib, davlatni yuksalishiga o‘z hissasini qo‘sishiga sabab bo‘luvchi bir jarayondir. Aynan maqolada ham til o‘rganish ushbu jarayonlarga bog‘liq ekanligi yoritilgan.

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan yoshlarimizni til o‘rganishlari uchun juda ko‘p imkoniyatlar yaratib berilmoqda, bundan oqilona foydalanib davlatimizni yuksaltirish biz yosh avlodlarning burchimizdir. Maqolada o‘sha davrga mos tarzda arab, turk, fors hamda rus tillari haqida so‘z yuritiladi. Turk tilini turkiy xalq bo‘lganliklari uchun, fors tilini nazm va nasrni o‘rganmoq uchun, arab tilini shar‘iy va diniy bilimlar o‘rganishlari uchun, rus tilini rus donishmandlarining asarlarini o‘qish uchun bilishlari kerakligi aytilgan. Shu holatni hozirgi kunga bog‘laydigan bo‘lsak, rus, ingliz, arab hamda o‘zimizning milliy tilimizni bilishimiz kerakligi bugunning dolzarb masalalaridan bo‘lib qolmoqda. Chunki ingliz tili hozirgi kunda xalqaro tillardan biri hisoblanib, ko‘p davlatlar uchun davlat tili hisoblanadi. Chet elga chiqqanda, yoki sayyoohlar va hamkorlar bilan uchrashganda so‘zlashish uchun, foydalanish uchun, arab tili asosan dinimiz va muqaddas kitobimizni o‘qish, rus tili esa hamkorlikda va zamonaviy texnologiyalardan to‘g‘ri foydalanish uchun ahamiyatlidir.

Shu o‘rinda milliy tilimizga to‘xtaladigan bo‘lsak, har bir inson o‘zining millatiga tegishli bo‘lgan davlat tilini chuqur o‘rganmog‘i va uni yuksalishiga, rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘sishi lozim. Ko‘rib turganimizdek, Behbudiyning barcha maqolalarining asosiy g‘oyasi millatni rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan til va jamiyatni kemirguvchi illatlardan tozalash kabilarni o‘z ichiga oladi.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, bizni kemirguvchi illatlar hisoblangan to‘y va xashamlarni ixchamlashtirish, shu sababli millatni yemirilishini oldini olish mumkin. Yana o‘zimizga kerakli bo‘lgan tillarni o‘rganib, chet davatlarda malakalarimizni oshirib, zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan holda davlatimizni yuksaltirish va rivojlangan davlatlar qatoridan joy olishiga o‘z hissamizni qo‘sishimiz zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. "Mahmudxoja Behbudiy publisistikasida Millat va milliyat masalalarining yoritilishi". Bitiruv malakaviy ishi-2019
2. Begali Qosimov. "Milliy uyg‘onish:ma’rifat, jasorat, fidoiylik" o‘quv qo‘llanma-Toshkent: Ma’naviyat, 2002
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 3-nashri Toshkent: Ma’naviyat”, 2006 yil